QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA NARGIZA MUSTAQIMOVNA

MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINI QO‘LLAB, RETSIRKULYATSIYALI MEVA QURITGICHINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ QILISH

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

TEXNIKA FANLARI BOʻYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

UDK 662.997.

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Nazarova Nargiza Mustaqimovna
Muqobil energiya manbalarini qo‘llab, retsirkulyatsiyali meva quritgichini ishlab chiqish va tadqiq qilish……..... 3

Назарова Наргиза Мустакимовна
Разработка и исследование рециркуляционной фруктосушилки с использованием альтернативных источников энергии..... 21

Nazarova Nargiza Mustakimovna
Development and research of a recirculating fruit dryer using alternative energy sources…….. 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA NARGIZA MUSTAQIMOVNA

MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINI QO‘LLAB, RETSIRKULYATSIYALI MEVA QURITGICHINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ QILISH

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

TEXNIKA FANLARI BO’YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/T1156 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jo‘rayev Turob Doniyorovich** texnika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Payzullaxonov Muxammade-Sultanxon Saydivalixonovich** texnika fanlari doktori, k.i.x. **Fayziyev To‘lqin Amirovich** texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Fizika-texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «__»_____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti konferensiyalar zali. Tel.: (99875) 224-02-89; faks: (99875) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____- raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy. Tel.: (99875) 224-02-89; faks: (99875) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «____» _____ dagi №____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

G‘.N. Uzoqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

X.A. Davlonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

B. Urishev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan yetakchi davlatlarida ham muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish tabiiy yoqilg‘ilar va energiya resurslari taqchilligi muammosini hal etishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida qaralmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va quritish jarayonlari energiya sarfi yuqori bo‘lgan texnologik jarayonlar hisoblanadi. “Dunyoda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va quritish jarayonlari uchun sarf etilayotgan energiya miqdori ushbu soha uchun sarf qilinayotgan umumiy energiya miqdorining 30 foizini tashkil etadi”[1]. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish texnologiyalarini takomillashtirish va muqobil energiya manbalari asosida ishlaydigan energiya va resurs tejamkor samarali texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlaydigan meva va sabzavot mahsulotlarini quritishga mo‘ljallangan energiya tejamkor quyosh quritgichlarini ishlab chiqish, samarali quritish usullari va texnologiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, energiya tejamkor quyosh quritgichlarini ishlab chiqish, quyosh energiyasidan samarali foydalanish asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish jarayonlarining energiya sarfini kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, quyosh quritgich qurilmarini takomillashtirish orqali uning ish unumdorligini oshirish, ixcham va resurs tejamkor konstruksiyaga ega bo‘lgan quritgichlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholining yil davomida quritilgan meva mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun zamonaviy quritish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar amalga oshirilib, samarali gelioquritgichlarning yangi konstruksiyalarini yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan “2019 — 2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi”da “...energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish...»[2] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun muqobil energiya manbalari asosidagi ixcham, energiya tejamkor gelioquritgich qurilmalarini yaratish dolzarb ilmiy-texnik vazifa hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya tejamkor texnologiyalar joriy etish bo‘yicha qabul qilingan 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir

[1] https://www.fao.org/3/cb7433en/cb7433en.pdf

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, https://lex.uz/docs/-4539502

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son, 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg‘or texnologiyalar va qurilmalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish nazariyasi va texnikasi, shu jumladan, meva-sabzavot mahsulotlarini quritish uchun mo‘ljallangan quyosh quritgichlarini yaratish va ularning samaradorligini oshirish, amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilmoqda. Xorijlik olimlardan A.V.Likov, A.S. Ginzburg, M.V.Radkevich, S.G. Ilyasov, N.I.Angersbax, M.Titov, M.A.Hossain, D.R.Pangavhane, A.Fudholi, G.N.Tiwari, B.K.Bala va boshqalar muammolarni o‘rganishga muhim hissa qo‘shgan.

Respublikamizda meva va sabzavot mahsulotlarini quritish hamda ularni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish, quyosh quritgichlari konstruksiyalarini takomillashtirish va ularda quritish jarayonining optimal rejimlarini aniqlash bo‘yicha G.G.Umarov, B.E.Xayriddinov, R.R.Avezov, R.A.Zohidov, A.Ismoilova, Z.S.Iskandarov, V.D.Kim, Z.Toirov, A.Ahmadaliyev, A.I.Ismanjonov, M.R.Nazarovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Erishilgan ijobiy ilmiy natijalarga qaramasdan, gelioquritgich qurilmalarida issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish va energiya tejamkor quritish qurilmalarini ishlab chiqish hamda ularda sodir bo‘ladigan issiqlik jarayonlari, shuningdek, ishlatilgan issiqlikni qayta tiklash (gelioquritgichda chiqindi issiq havodan qayta foydalanish) usullari kabi muammolar kam o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, 2016-2017-yillarga mo‘ljallangan A-13-3 raqamli “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini yanada takomillashtirish va ulardagi jarayonlarni modellashtirishni tadqiq qilish” ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi meva va sabzavotlarni quritish uchun yuqori samaradorlikka ega energiya tejovchi retsirkulyatsiyali gelioquritgichni ishlab chiqish va tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

quyosh quritgich qurilmalari va quritish texnologiyalarining zamonaviy holatini tahlil qilish;

retsirkulyatsiyali quyosh quritgich qurilmasida mevalarning quritish kinetikasini o‘rganish hamda unda yuz beradigan issiqlik-massa almashish jarayonlarini modellashtirish va sonli hisoblash usullaridan foydalanib tadqiqotlar o‘tkazish;

energiya tejamkor gelioquritish qurilmasini ishlab chiqish va tajribaviy tadqiqot ishlarini olib borish;

retsirkulyatsiyali geliquritish qurilmasida va ochiq havoda turli mevalarni quritish kinetikasining empirik modellarini eksperimental tekshirish;

energiya tejamkor gelioquritish qurilmasining texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida retsirkulyatsiyali gelioquritgich qurilmasi olingan.

Tadqiqotning predmeti retsirkulyatsiyali gelioquritgich qurilmasidagi mevalarning quritish kinetikasi hamda issiqlik va massa almashinuv jarayonlarining qonuniyatlarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, issiqlik va massa almashinuvi nazariyasi, eksperimentlarni rejalashtirish va tajriba natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uyali polikabonat qoplamali quritish kamerasining shaffof sirtidan issiqlik yo’qotilishini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradigan, infraqizil nurlatgich reflektorli, shamollatish tizimi hamda harorat va namlik rejimlarini avtomatik boshqaruv tizimiga ega bo’lgan ixcham gelioquritgich qurilmasi ishlab chiqilgan;

quyosh meva quritgich qurilmasida ishlatilgan ikkilamchi issiqlikni mahsulotni quritish uchun utilizatsiya qilish imkonini beradigan, yuqori issiqlik samaradorlikka ega, rekuperativ issiqlik almashtirgich orqali takomillashtirilgan retsirkulyatsiya tizimli energiyatejamkor quyosh quritgich qurilmasi ishlab chiqilgan;

quritiladigan mahsulot va havoning namligi hamda haroratlarini o’zgarishini hisobga olgan holda quritish tezligini quritish agentining issiqlik va massa almashinuvi parametrlari bilan bog’laydigan, quritish kinetikasini hisoblash imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan;

retsirkulyatsiyali quyosh meva quritgich qurilmasida o’tkazilgan tajriba natijalarini umumlashtirish asosida tajribalarni rejalashtirish usuli bilan mahsulotlarning qurish davomiyligini quritish agentining tezligi va haroratiga bog’liq o’zgarishini aniqlash imkonini beradigan regression tenglama olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

retsirkulyatsiyali rejimda ishlaydigan mevalarni quritish uchun ixcham, shamollatiladigan gelioquritgich qurilmasi ishlab chiqilgan;

retsirkulyatsiyali gelioquritgich qurilmasining samaradorligini oshirish maqsadida rekuperativ issiqlik almashtirgichli gelioquritgich qurilmasining yarim sanoat namunasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usul va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, olingan natijalarga zamonaviy matematik ishlovlar berish, empirik, kuzatuv va taqqoslash usullarining bir xil sharoitda qo‘llanilishi, keltirilgan qurilma samaradorligi uning prototip va analoglari samaradorligiga mosligi, retsirkulyatsiyali quyosh quritgich (RQQ) qurilmasi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

RQQ qurilmasida tabiiy sharoitda o‘tkazilgan sinov, tadqiqot-tajriba natijalarining hisoblash natijalariga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati retsirkulyatsiyali ixcham quyosh quritgich qurilmasining samaradorligini oshirish uchun mevalarning quritish rejimlarini ishlab chiqish, bu jarayonlarning matematik modeli va uning dasturiy ta’minoti hamda gelioquritgichda chiqindi issiqlikdan qayta foydalanishga imkon beradigan rekuperativ issiqlik almashtirgichning qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Retsirkulyatsiyali ixcham gelioquritgich qurilmasidan markazlashgan elektr ta’minoti tizimidan uzoqda joylashgan bog‘dorchilik xo‘jaliklarida sifatli quritilgan meva mahsulotlarini olish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muqobil energiya manbalarini qo‘llab, retsirkulyatsiyali meva quritgichini ishlab chiqish va tadqiq qilish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishga mo‘ljallangan ixcham gelioquritgich qurilmasi (№ FAP 01889., 29.03.22 y) va energiya tejamkor gelioquritgich qurilmasi (№ FAP 02102., 13.09.22 y) uchun O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali modeliga patentlar olingan. Natijada, yuqori samarali energiyatejamkor gelioquritish qurilmasini qo‘llash orqali sifatli quritilgan mahsulot olish imkoniyati yaratilgan;

energiyatejamkor retsirkulyatsiyali quyosh quritgich qurilmasi Buxoro viloyatining “Baqollik Usmon Vohidov” va “Zarafshon suv sohillari” fermer xo‘jaliklarida joriy qilingan. (Qishloq xo‘jalik vazirligining 2021-yil 22-dekabrdagi №04/21-06/157-son ma’lumotnomasi). Natijada, retsirkulyatsiyali gelioquritgich qurilmasini qo‘llash orqali har 100 kg quritilgan mahsulotni quritish uchun sarf qilinayotgan mablag‘ miqdorini 2,25 mln so‘m tejalishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjuman, shu jumladan, 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shu jumladan, 2 ta monografiya, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan hamda EHM uchun 2 ta dasturiy mahsulotga mualliflik guvohnomasi va O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 2 ta foydali modelga patentlari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Meva va sabzavot mahsulotlarini quyosh energiyasidan foydalanib quritishning zamonaviy holati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida jahon amaliyoti va respublikamizda quyosh energiyasi yordamida meva va sabzavotlarning zamonaviy quritish usullari va texnologiyasiga doir ma’lumotlar keltirilgan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishga mo‘ljallangan gelioquritgich qurilmalarining tuzilishi, ishlash tamoyilarining tavsifi, ularda quritiladigan meva mahsulotlarining qurish kinetikasi hamda quritish jarayonida sodir bo‘ladigan issiqlik massa-almashinish jarayonlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, erishilgan muhim natijalarga qaramasdan, gelioquritgich qurilmalarida issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish va energiya tejamkor quritish qurilmalarini ishlab chiqish va ularda sodir bo‘ladigan issiqlik jarayonlari shuningdek, ishlatilgan issiqlikni qayta tiklash usullari kabi muammolar yetarlicha tadqiqot qilinmagan. O’tkazilgan ilmiy tahlil asosida quritish qurilmalarining samaradorligini oshirish va ularning potensial imkoniyatlarini aniqlash shuningdek, energiya tejovchi quyosh quritish qurilmalarini loyihalash sohasida tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish tendensiyasini hisobga olgan holda dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Radiatsion-konvektiv quyosh quritgich qurilmalarining samaradorligini oshirish va ularda quritish jarayonlarini tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida radiatsion-konvektiv gelioquritgichining laboratoriya modelida meva va sabzavotlarni quritish jarayoni kinetikasi va eksperimental hisoblash tadqiqot natijalari keltirilgan.

Ushbu bobda mevalarni quritish uchun radiatsion konvektiv gelioquritgich qurilmasini tuzilishi va ishlash tamoyili batafsil bayon etilgan.

Quyosh-issiqlik quritgichi 2,3 ventilatsiya tizimi va avtomatik boshqaruv tizimi bilan jihozlangan quritish kamerasini o‘z ichiga oladi. U majburiy sirkulatsiya va retsirkulyatsiya rejimlarida ishlashi mumkin. Qo‘shimcha issiqlik manbai sifatida 4 (2 dona) reflektorli KGT-1000 tipidagi IK-lampa ishlatilgan. U asosan kamerada quritish mahsulotlarini harorat va namlik rejimini avtomatik rostlash, shuningdek, quritgichning uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun ishlatiladi.



1-quritish kamerasi, 2.3-ventilyatorlar, 4-reflektorli IK nurlatgich, 5–mahsulot javoni, 6-kontaktli termometr, 7-boshqaruv paneli, 8-havo kanali, 9-shaffof izolatsiya.

1-rasm. Radiatsion konvektiv gelioquritgich qurilmasining sxemasi.

Quritish kamerasida ishlatilgan issiqlik tashuvchini tashqariga chiqarib tashlash majburiy shamollatish (ventilatsiya) tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Majburiy havo sirkulatsiyasini amalga oshirish uchun kameraning kirish qismiga 2 ventilator o‘rnatiladi. 3 ventilator esa kameraning yuqori qismiga o‘rnatilgan va u quritish kamerasidan nam havoni chiqarish uchun ishlatiladi.

Retsirkulyatsiya rejimida quritgich qurilmasida mevalarni quritish jarayoni kinetikasi tadqiqot qilindi va uning matematik modeli ishlab chiqildi.

Radiatsion-konvektiv quyosh quritgichida mevalarni quritishi jarayonida ularning quritish tezligini quritish agentining issiqlik va massa-almashinish parametrlari (quritish omillari) bilan bog‘laydigan quyidagi tenglama olindi:

$$\frac{dM}{d\tau} = \frac{C_p T.D.\rho_m(\tau)}{r} S(1-\varphi) \qquad (1)$$

bu yerda S - mevalarning umumiy yuzasi; ρ_m (τ) - to‘yingan bug‘ning zichligi; φ- havoning nisbiy namligi; D–mevaning diffuziya koeffitsiyenti.

Quyosh quritish qurilmalarida mevalarni quritish kinetikasini o‘rganishda, shu bilan birga ularni quritish rejimlarini tanlashda tajribani rejalashtirish usuli (o‘lchash natijalarini qayta ishlash) issiqlik jarayonlarini o‘rganishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, mahsulotlarni quritish jarayoni ko‘p faktorli (omilli), bo‘lgani uchun faktorlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlarini aniqlash qiyin. Shuning uchun ushbu usul yordamida meva va sabzavotlarni quritish jarayonining asosiy qonuniyatlarini aniqlash mumkin.

Mevalarni quritish jarayonida issiqlik-massa almashinish jarayonlari sodir bo‘ladi. Mevalarni quritish tezligi asosan quritish omillariga bog‘liq. Agar tajribani rejalashtirishning yuqoridagi usuli issiqlik jarayonlariga qo‘llanilsa, u holda tajribalarni o‘tkazish va o‘lchash natijalarini olish vaqti ancha qisqaradi.

Mevalarning quritish vaqti va ularning sifat ko‘rsatkichlarining asosiy quritish omillariga bog‘liqligini aniqlash uchun faol shamollatiladigan radiatsion konvektiv gelioquritgich qurilmasi ishlab chiqildi.

Quritgich qurilmasida mevalarni quritishda haroratni, havo namligini va quritish kamerasidagi quritish agenti (havo) tezligini nazorat qilish mumkin. Quritgich kamerasidagi harorat-namlik rejimlarini nazorat qilish uchun namlik datchigi, psixrometr va harorat datchigi ishlatilgan shuningdek, mevalarni quritish jarayonida mis-konstantan termojufti va elektron tarozidan foydalanildi.

Issiqlik jarayonlarini o‘rganishda chiziqli va to‘liq bo‘lmagan kvadratik bog‘lanishlar ko‘pincha yuzaga keladi, ularni topish uchun to‘liq faktorial tajriba (TFT) ni o‘tkazish bilan bog‘liq. TFT ni o‘tkazishda rejalashtirish ikki sathda amalga oshiriladi: - yuqori (+1) va pastki (-1).

Tajribalar soni N faktorlar soni (k) ga bog‘liq va u 2k ga teng. Bizning masalamizda ikkita faktor uchun tajribalar soni $N=2^2=4$ ga teng bo‘ladi. Tajribani rejalashtirish matritsasiga ko‘ra, tajribalar natijalari ishchi jadvalda qayd etildi.

Meva namligi quritish vaqtida meva massasining o‘zgarishini tortib o‘lchash yo‘li bilan aniqlandi. Tajribalar uchun quyosh-issiqlik quritgichida quritish obyekti sifatida o‘rik mevalari tanlangan. Bir xil massadagi (har biri 100 g) o‘rik namunalari quritgichda turli xil rejimlarda quritilgan.



2-rasm.Turli quritish rejimlarida o‘rik mevasi namunalarini quritish kinetikasi.

Quritgichda turli rejimlarda quritish jarayonida namunalar har soatda ularning massalari elektron tarozi bilan o‘lchandi. Har bir tajribadan so‘ng quritilgan mevalarning oxirgi namligi bo‘yicha (quritish vaqti) va sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Olingan o‘lchash natijalari asosida mevaning quritish egriligi grafiklari qurildi. 2-rasmda turli quritish rejimlarida quritilgan o‘rikni quritish egriliklari ko‘rsatilgan. Quritish egriligi grafigidan o‘rikni quritish vaqtlarini aniqlash mumkin. Masalan, 2- rasmda 1,2,3 egri chiziqlar uchun oxirgi uch nuqta 28, 36, 42 soatlar quritish vaqti qiymatlariga teng. Shuning uchun quritishning tugashini t=42 soat deb hisoblash mumkin.

Olingan tajriba natijalari asosida tajribalarni rejalashtirish usuli bilan o‘rik mevasining quritish vaqtini havo harorati va quritish agenti tezligiga bog‘liqligini aks ettiradigan quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$Y_1 = 36 - 5x_1 - 2x_2 - x_1x_2 \qquad (2)$$

bu yerda x_1,x_2 - mos ravishda quritish agentining harorati va tezligi.

Olingan (2) tenglama quritilgan o‘rikni quritish davomiyligining asosiy quritish omillariga bog‘liqligini aks ettiruvchi matematik modeli hisoblanadi.

Olingan tenglamadan ko‘rish mumkinki, mevaning quritish muddati quritish agenti harorati va uning tezligi oshishi bilan qisqarishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, haroratning ta’siri quritish agenti tezligiga nisbatan kuchli ta’sir etadi. Ushbu usul yordamida meva va sabzavotlarni quyosh quritgichlarida quritish rejimlarini aniqlash mumkin.

Dissertatsiyaning **“Gelioquritgich qurilmalarda meva va sabzavotlarni quritishda issiqlik va massa almashinish jarayonlarini tadqiq etish”** deb

nomlangan uchinchi bobida taklif etilayotgan retsirkulyatsiyali gelioquritgichining tajriba namunasining tuzilishi, ishlash prinsipi va undagi sodir bo‘ladigan issiqlik-massa-almashinish jarayonlarining tadqiqoti bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari aks ettirilgan.



1 – quritish kamerasi; 2 – ventilyator (nam havoni chiqarish uchun); 3 –ventilyator (faol shamollatish uchun); 4 – shaffof izolatsiya; 5 – quritiladigan mahsulotlar uchun polkalar; 6 – QB (quyosh batareyasi); 7 – akkumulator batareyasi; 8 – BP (boshqaruv paneli); 9 – quyosh nurlari; 10 – harorat datchigi; 11 – havo namligi datchigi; 12 – IK lampalar; 13 – nazoratchi; 14 – invertor; 15-tirqish.

3-rasm. Retsirkulyatsiyali ixcham shamollatiladigan gelioquritgichning prinsipial sxemasi.

Olingan patent va ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlilidan kelib chiqqan holda, ixcham gelioquritgich qurilma ishlab chiqildi (3-rasm). Ishlab chiqilgan qurilmaning texnik yangiliklariga O’zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligining foydali modelga FAP 01889 raqamli patenti olingan.

Ushbu quritish qurilmasi shamollatish tizimi, avtonom elektr manbai (quyosh paneli) va avtomatik boshqaruv tizimi bilan jihozlangan quritish kamerasidan iborat.

O’tkazilgan tajribalardan ma’lum bo‘ldiki, mazkur quyosh quritgich tarkibidagi 2,3 ventilyatorlar va IK-lampalarni elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun avtonom quyosh batareyasi hamda avtomatik boshqaruv tizimidan foydalanilgan. Bu tizim hisobiga gelioquritgichning samaradorligi va unumdorligi ancha yuqori ekanligi tajribalarda o‘z tasdig‘ini topdi.

Quritish kamerasi 2,0×0,8×1,3 m^3 o‘lchamdagi to‘rtburchak shaklda bo‘lib, quritilishi kerak bo‘lgan mahsulot uchun kamera va uning ustki qismi yarim silindrik shaffof issiqlik izolatsiya materiali (leksan) bilan qoplangan. Quritgich kamerasi va havoqizdirgich bir kameraga birlashtirilgan. Quritgich kamerasida umumiy yuzasi 1,8 m^2 bo‘lgan to‘rtta to‘rli polkalar mavjud. Quyosh quritgichining yuqori va yon qismlari 6 mm li shaffof uyali polikarbonat (leksan) materiali bilan germetik qilib qoplangan, chunki bu material shisha va plyonkaga nisbatan issiqlik yo‘qotilishini 2-3 barobar kamaytiradi hamda mexanik kuchlanish va tashqi ta’sirlarga bardoshli hisoblanadi.

Avtonom elektr manbaiga ega bo‘lgan avtomatik boshqaruv bloki quyosh moduli 6, akkumulyator 7 va quyosh paneli 8 dan iborat. Quyosh batareyasi

quritish kamerasi yaqinidagi maxsus tayanchli moslamaga o‘rnatiladi. Quyosh batareyasining chiqishidan olingan kuchlanish nazoratchi (kontroller)ga beriladi va undan elektr energiyasi to‘plash uchun akkumulyatorga uzatiladi.



4-rasm. Quritgichning avtonom elektr ta’minotining blok-sxemasi.

Avtonom elektr ta’minoti bloki quyidagicha ishlaydi: quyosh radiatsiyasi 9 ta’sirida fotoelektrik panel quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi, bu energiya kontroller orqali akkumulatorda to‘planadi (4-rasm). Quritish kamerasida qo‘shimcha issiqlik manbai sifatida quyosh batareyasi bilan quvvatlanadigan 12 (2 ta) reflektorli KGT-500 tipidagi infraqizil (IK lampa) ishlatiladi.



1 – quritish kamerasi; 2 – ventilyator (nam havoni chiqarish uchun); 3 – ventilyator (faol shamollatish uchun); 4 – shaffof izolatsiya; 5 – quritiladigan mahsulotlar uchun poddonlar; 6– quyosh batareyasi (QB); 7– akkumulyator batareyasi; 8 – BP (boshqaruv paneli); 9 – quyosh nurlari; 10 – harorat datchigi; 11 – havo namligi datchigi; 12 – IK lampalar; 13 – nazoratchi; 14 – inverter; 15 – kirish darchasi; 16 – tortim truba; 17 – tortim ventilyator; 18 – shnekli qurilma; 19 – rekuperativ issiqlik almashtirgich; 20 – G simon truba.

5-rasm. Retsirkulyatsiyali rekuperativ issiqlik almashtirgichli quyosh quritgich (RRIAQQ) qurilmasining prinsipial sxemasi.

Quritish jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida meva va sabzavot mahsulotlarini quritish uchun energiya tejamkor quyosh quritgichi ishlab chiqildi (5-rasm). Ishlab chiqilgan qurilmaning ilmiy yangiligiga O’zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligining foydali modelga FAP 02102 raqamli patenti olingan.

Ushbu gelioquritgichda ishlatilgan quritish agentini tashqariga chiqarish uchun uning yuqori qismiga tortim trubasi (16) o‘rnatilgan. Tortim trubasi shunday yasalganki, u tashlandiq issiq nam havoni chiqarib tashlash bilan birga rekuperativ issiqlik almashtirgich (19) (RIA) sifatida ham ishlatiladi. RIA ichki va tashqi truba (quvur)dan (truba ichida truba) va tortim ventilatoridan iborat. Ichki trubaning

balandligi 2 m, uning ichiga shnekli qurilma (18) o‘rnatilgan. (RIAning ichki va tashqi quvurlari diametrlari mos ravishda 20 sm va 16 sm ni tashkil etadi. Rekuperativ issiqlik almashtirgichning tashqi trubkasi qora rangga bo‘yalgan va kun davomida quyosh nurlari ta’sirida qiziydi (5-rasm.).

RRIAQQ ning ishlash prinsipi quyidagicha. Tortim ventilyatori (17) yordamida mevalarni quritish jarayonida ishlatilgan nam havo tortim truba (shnekli kanal) orqali atmosferaga chiqariladi. Ishlatilgan quritish agenti (tashlandiq issiq havo) o‘z harakati davomida shnekli truba orqali o‘z issiqligining bir qismini issiqlik almashtirgichga, ya’ni tashqaridan kiradigan atmosfera havosiga beradi. Rekuperativ issiqlik almashtirgichning tashqi trubkasi quyosh nurlanishini yutish orqali qizdiriladi va uning issiqligining bir qismi quritgichga kiradigan havo oqimiga o‘tkazadi.

Taklif etilayotgan quyosh quritgich qurilmasi majburiy va tabiiy sirkulatsiya rejimlarida hamda retsirkulyatsiya rejimida ishlashi mumkin. Retsirkulyatsiya rejimida ushbu quyosh quritgichi quyidagicha ishlaydi: kameraga mahsulotlarni yuklagandan so‘ng, quritgich pastki qismidagi havo kirish darchalari yopiladi va ventilyator (2) ishlatilmaydi. 55-60 °S haroratgacha qizdirilgan havo ventilyator (3) orqali quritiladigan mevalar bo‘ylab haydaladi va retsirkulyatsiya jarayoni kamerada havo nisbiy namligi ma’lum qiymatga (masalan, 40 %) yetguncha davom etadi. Mevalar qurishining birinchi davrida kameradagi havoning namligi asta-sekin ortib boradi. Kamera ichidagi havo nisbiy namlikning belgilangan qiymatiga erishgandan so‘ng, namlik datchigi (DHT-21 turi) (11) avtomatik ravishda tortim ventilyator (17) ni ishga tushiradi. So‘ngra, kameradagi havo namligi o‘rnatilgan qiymatgacha kamayishi bilan tortim ventilyator (17) namlik datchigi signali bilan o‘chiriladi va jarayon yana takrorlanadi.Tavsiya etilayotgan gelioquritgich qurilmasida quritish mavsumida mevalarni quritish jarayonini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, ushbu bobda retsirkulyatsiyali quyosh quritgich (RQQ) ida mevalarni qurish jarayonida harorat va namlik rejimining matematik modellashtirish va nazariy tadqiqot natijalari, jumladan issiqlik balansining energetik tahlili va sonli tadqiqot natijalari keltirilgan.

Quritgich kamerasi ichidagi mahsulot uchun issiqlik balansi tenglamalari quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$C_{\text{м}}M_{\text{м}}\frac{dT_{\text{м}}}{dt} = \alpha_{\text{к}1}(T_{\text{а}} - T_{\text{м}})S_{\text{м}} - \left(\alpha_{\text{к}2} + \alpha_{bug'}\right)(T_{\text{м}} - T_{n.h})S_{\text{м}} + \alpha_{\text{м}}S_{\text{м}}q_{tush}^{\Sigma} \quad (3)$$

Quritish kamerasidagi nam havo uchun issiqlik balansi tenglamasi:

$$C_{n.h}M_{n.h}\frac{dT_{n.h}}{dt} = \left(\alpha_{\text{к}2} + \alpha_{bug'}\right)(T_{\text{м}} - T_{n.h})S_{\text{м}} - \alpha_{\text{к}3}(T_{n.h} - T_d)S_d - c_{q.r}S_{ch}\sqrt{2g\Delta H}\Delta P\,, (4)$$

Bosim farqi ΔH (m) va parsial bosim farqi ΔP (N/m^2) quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$\Delta H = \frac{\Delta P}{\rho_{n.h}g} \quad (5)$$

$$\Delta P = P(T_{n.h}) - \gamma P(T_{\text{o}}) \quad (6)$$

$$P(T) = exp\left(25.317 - \frac{5144}{T + 273.15}\right) \quad (7)$$

Quritish kamerasining devori uchun issiqlik balans tenglamasi:

$$C_d M_d \frac{dT_d}{dt} = \alpha_{к3}(T_{n.h} - T_м)S_d - \alpha_d(T_d - T_о)S_d, \quad (8)$$

Quritish tizimining ishlashini bashorat qilish uchun quritgichning oniy issiqlik samaradorligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\eta = \frac{\alpha_{bug'}(T_м - T_{n.h})}{q_{tush}^{\Sigma}} 100, \quad (9)$$

Issiq havo va quritiladigan mahsulot orasidagi konvektiv issiqlik uzatish koeffitsiyenti quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha_{к1} = \alpha_{к2} = Nu \frac{\lambda_n}{D} \quad (10)$$

Turbulent oqim uchun: $Nu = 0.023 Re^{0.8} Pr^{0.4}$ (11)

$$0.7 \leq Pr \leq 120 \text{ , } 10^4 \leq Re \leq 1.2 \cdot 10^5 \quad (12)$$

Reynolds soni quyidagicha ifodalanadi:

$$Re = \frac{U_a l}{\vartheta} \quad (13)$$

Turbulent oqim uchun: $Nu = 0.036 Re^{0.8} Pr^{0.33}$ (14)

$Pr \geq 0.5$, $Re > 5 \cdot 10^5$ bu yerda Nu – Nusselt soni; Pr- Prandtl soni; Re- Reynolds soni; λ_n- nam havoning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti (Vt/m°S); D- mahsulot qatlamining xarakterli diametri (m); U_a - havo tezligi (m/s); l- xarakterli o‘lcham (m); ϑ - nam havoning kinematik yopishqoqligi (m^2/s).

Izolatsiya qatlami uchun issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\alpha_d = \frac{\lambda_i}{d_i} \quad (15)$$

Bu yerda λ_i, d_i- mos ravishda ko‘rib chiqilayotgan izolatsiya qatlamining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti (Vt /m °S) va qalinligi (m).

Bug‘lanish orqali issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$\alpha_{bug'} = 0.016 \alpha_{к1} \frac{[P(T_м) - \gamma P(T_{n.h})]}{T_м - T_{n.h}} \quad (16)$$

(3) - (8) differensial tenglamalarni 5-rasmda ko‘rsatilgan chegara shartlari bilan yechish uchun Laplas o‘zgartirish usuli (operatsion usul) qo‘llanildi.

Quritish kinetikasini quritish va quritish tezligiga ta’sir qiluvchi omillarga bog‘liqlik sifatida aniqlash mumkin. Quritish paytida namlik o‘tkazuvchanligini birinchi tartibli kinetik model yordamida quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$-\frac{dM}{dt} = k(M - M_n) \quad (17)$$

bu yerda: M-quritish paytida quruq vaznga nisbatan mahsulotdagi namlik miqdori (kg suv/kg quruq modda); M_n–quritilgan mahsulotdagi muvozanatli namlik (kg suv/kg quruq moddalar); k–quritish tezligi (s^{-1}); t–quritish vaqti (s). Quritish tezligi nam havo haroratiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$k = -9.75 \cdot 10^{-4} + 3.29 \cdot 10^{-6} T_{n.h} \quad (18)$$

va shunga mos ravishda, muvozanatli namlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$M_e = \frac{W_m C K a_w}{(1-Ka_w)[1+(C-1)Ka_w]} \quad (19)$$

Bu yerda W_m, C va K - havo harorati bilan bog‘liq parametrlar bo‘lib ular quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:

$$W_m = 0.0014254 exp\left(\frac{1193.2}{T_к}\right) \quad (20)$$

$$C = 0.5923841 exp\left(\frac{1072.5}{T_к}\right) \quad (21)$$

$$K = 1.00779919 exp\left(-\frac{43.146}{T_к}\right) \quad (22)$$

Har qanday materialning quritish tezligi (pasayish tezligi bilan) quritish egri chizig‘ining qiyaligi sifatida aniqlanadi. t=0 bo‘lsa, materialning namligi dastlabki namlik miqdoriga teng bo‘ladi (ya’ni M = M_0). Yuqorida keltirilgan tenglama "t" va M_t vaqtidagi namlik miqdori uchun quyidagi ifodani olish uchun integrallangan:

$$M_t = M_n - (M_n - M_0)\exp(-kt) \quad (23)$$

Bu tenglama quyidagicha yoziladi: $MR = \frac{M_t - M_n}{M_0 - M_n} \approx \frac{M_t}{M_0} = \exp(-kt).$ (24)

Taklif etilayotgan modelning aniqligi har bir verifikatsiya va validatsiya darajasida determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) ning qiymati, o‘rtacha siljish xatoligi (MBE) va o‘rtacha kvadratik og‘ish (RMSE) usullari yordamida baholandi. Tavsiya etilgan matematik modelda hisoblangan quritish agenti haroratining statistik tahlili 2020-yil 5-6-sentabr kunlari o‘tkazilgan tajriba natijalarini solishtirish yo‘li bilan amalga oshirildi.

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^{N}\left(R_{m_i} - R_{e_i}\right)^2}{\sum_{i=1}^{N}\left(R_{m_i} - \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N} R_{m_i}\right)^2} \quad (25)$$

$$MBE = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N}\left(R_{m_i} - R_{e_i}\right)^2 \quad (26)$$

$$RMSE = \left[\frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N}\left(R_{m_i} - R_{e_i}\right)^2\right]^{\frac{1}{2}} \quad (27)$$

bu yerda, N - ma’lumotlar nuqtalari soni, R - ma’lumotlar to‘plami, e va m indekslar mos ravishda eksperimental va hisoblash ma’lumotlarni bildiradi.

Taklif etilayotgan matematik modelning ishonchliligini tekshirish uchun statistik tahlil o‘tkazildi, unda hisoblangan natijalar 2020-yil 5–6-sentabrda o‘tkazilgan eksperimental natijalar bilan solishtirildi. Atrof-muhit haroratining sutkalik o‘zgarishi va yig‘indi quyosh radiatsiyasi oqimining zichligi 6-rasmda ko‘rsatilgan. O’lchash natijalari ko‘rsatganidek, maksimal atrof-muhit harorati soat 14:00 da kuzatiladi, tushayotgan yig‘indi quyosh radiatsiyasi oqim zichligining eng yuqori qiymati, esa soat 12:30 da kuzatiladi.

Quyosh quritgich ichidagi haroratning kunlik o‘zgarishlarining statistik tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki: RMSE - o‘rtacha kvadratik xatolik 2,3°S ga teng foizda o‘rtacha kvadratik xatosi 5,7% ga teng va korrelatsiya koeffitsiyenti kvadrati 0,86 ga teng. Eksperimental va hisoblash ma’lumotlarning natijalari o‘rtasidagi asosiy siljish eng yuqori haroratlarda kuzatiladi.



6-rasm. (1) atrof-muhit haroratining kunlik o‘zgarishi va (2) tushayotgan yig‘indi quyosh radiatsiyasi oqim zichligining kunlik o‘zgarishlari



7-rasm. Gelioquritgich ichidagi haroratning sutkalik o‘zgarishi: 1-hisoblangan natijalar; 2-eksperimental natijalar

Retsirkulyatsiyali quyosh quritgich qurilmasida meva va sabzavotlarni quritish kinetikasini o‘rganish bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. Quritish obyekti sifatida olma mevasi tanlangan. 1-jadvalda ochiq havoda (quyoshda) va gelioquritgich kamerasida mevalarni quritish jarayonida olingan tajriba o‘lchash ma’lumotlari keltirilgan.

1-jadval

RIAQQning tajriba tadqiqotlari natijalari

Vaqti (soat)	m_1, г	m_2, г	t_o	φ_1	t_1	t_2	φ_2	$t_м$
10:00	100	100	32,4	13	46	46	50	34
11:00	92	86	34,1	10	44	44	50	36,1
12:00	81	71	34,8	12	48	47	46	40,2
13:00	70	56	36	12	52,3	51,3	38	43,9
14:00	64	43	36,8	10	54,3	52,7	32	47
15:00	54	33	37,6	10	54	53,2	25	47,6
16:00	44	26	36,7	10	52,3	51,1	19	48,9
17:00	37	22	36,6	10	42,8	43,1	21	42,6
10:00	34	20	35,7	10	38,2	38,2	21	38,4
11:00	23	17	31,4	18	48,4	53,1	21	49,2
12:00	23	16	34,9	14	57,2	58,6	16	57,3
13:00	22	16	36,3	12	64,7	64,7	16	57,3

Belgilashlar: ochiq maydondagi meva massasi (m_1), quritgichdagi meva massasi (m_2), tashqi havo harorati (t_o); tashqi havo namligi (φ_1); quritgich ichidagi havo harorati mos ravishda kamera pasti (t_1) va kamera yuqorisi (t_2); quritgich ichidagi nisbiy havo namligi (φ_2); meva harorati (t_m).



8-rasm. Olmani ochiq havo paytida quritish kinetikasi.



9-rasm. Olmani quyosh quritgich kamerasida quritish kinetikasi.

Olmani quritgich kamerasida va quyosh nuri bilan quritish jarayonida mahsulotni quritish kinetikasining hisoblash va empirik grafiklari nazariy, yarim nazariy, empirik va eksperimental natijalar orasida eng yaxshi moslik borligini ko‘rsatadi (9-rasmda). Ammo faqat Genderson va Pabis modeli eng yaxshi natijani ko‘rsatdi. Bu yerda determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), siljishning o‘rtacha xatosi (MBE) va o‘rtacha kvadratik xatolik (RMSE) mos ravishda 0,985, 0,027 va 0,0007 ni tashkil qiladi. Olingan natijalarning batafsil statistik tahlili 2-jadvalda keltirilgan (2-rejim mahsulot namunasi quritish kamerasida quritilgan rejimga mos keladi).

2-jadval

Ochiq havoda va quyosh quritgichida quritilgan olmaning quritish kinetikasi matematik modelining aniqligi

Model	Qurish rejimi	k, s^{-1}	k_e, s^{-1} tengla-ma (20)	N	a	R^2	RMSE	MBE
$MR=\exp(-kt)$	Rejim1	0,2372	0,143 0,320	-	-	0,939	0,053	0,0028
	Rejim 2	0,3343		-	-	0,973	0,036	0,0013
$MR=\exp(-kt^n)$	Rejim 1	1,284		0,828	-	0,950	0,048	0,0023
	Rejim 2	0,1838		1,063	-	0,974	0,036	0,0013
$MR=a\exp(-kt)$	Rejim 1	0,192		-	0,818	0,984	0,027	0,0007
	Rejim 2	0,301		-	0,894	0,985	0,027	0,0007

Dissertatsiyaning **“Retsirkulyatsiyali quyosh quritgichini ishlab chiqarish sinov natijalari va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida retsirkulyatsiyali gelioquritgichining samaradorligini oshirish, quritish kinetikasining nazariy hisoblash va tajriba natijalarining o‘zaro mosligini tekshirish va tavsiya etilayotgan gelioquritgichning texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlari bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

10-rasm. Retsirkulyatsiyali quyosh quritgich qurilmasining tashqi ko‘rinishi.

Ko‘pincha, gelioquritgichlarni texnik-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishda yillik xarajat usuli qo‘llaniladi. Quritgichning umumiy yillik tannarxi bir yilda quritilgan mahsulot miqdoriga bo‘linib, quritilgan mahsulotning birlik massasiga to‘g‘ri keladigan quritish xarajatlarini topish mumkin.

Quyosh quritgichining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quritilgan mahsulotlarni, masalan, o‘rik, uzum, olma va boshqalarni quritilgandan keyin olingan mahsulot miqdori hamda boshqa ma’lumotlarini ham bilish kerak.

3-jadval

Retsirkulyatsiyali gelioquritgich qurilmalarida qora kishmishni quritish bo‘yicha o‘tkazilgan qiyosiy tajriba natijalari

№.	Gelioquritgichning issiqlik-texnikaviy va texnologik ko‘rsatgichlari	Retsirkulya-siyali gelioquritgich	Retsirkulya-siyali RIAQQ
1	Gelioquritgich shaffof yuzasining maydoni, m^2.	6.2	6.2
2	Gelioquritgich sirtiga tushadigan o‘rtacha kunlik quyosh radiatsiyasi, Vt/m^2.	600	600
3	Mahsulotning dastlabki namligi (qora kishmish), %	80	80
4	Mahsulotning quritilgandan keyingi namligi (qora kishmish), %	24	22
5	Mahsulotni solishtirma yuklash yuzasi maydoni, kg/m^2	8	8
6	Quritish vaqti, kun	7	5
7	Quritish unumdorligi, $kg.q.m. / m^2$. kun	0.55	0.95
8	Quritgich ichidagi kunlik o‘rtacha temperatura, 0 S	44	52
9	Quritgich ichidagi kunlik o‘rtacha havoning nisbiy namligi, %	30,5	18,5
10	Samaradorlik, %	32	40



11-rasm. Quritigich qurilmasining o‘zini qoplash muddatining mahsulot narxiga bog‘liqligi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu qurilmaning iqtisodiy va ekologik yutuqlarini aniqlash bo‘yicha hisoblashlar amalga oshirildi. Quyosh quritgichlaridan olingan hisoblash ma’lumotlarga asoslanib, unda quritilgan mahsulot narxiga qarab, qurilmani o‘zini qoplash muddatini aniqlash mumkin.

Hisoblashlar shuni ko‘rsatadiki, quyosh quritgich qurilmasining o‘zini qoplash muddati quritilgan mahsulot tannarxiga bog‘liq bo‘lib (0.04 dan 1.2 AQSH dollarigacha) 4 oydan 6 yilgacha o‘zgaradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni yechish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib quyidagi xulosalar qilindi.

1. Quyosh quritgichlari bo‘yicha adabiyotlar sharhi va eksperimental ma’lumotlarning tahliliga asoslanib, quyosh quritgichlarining konstruksiyalarini loyihalashda shaffof izolatsiya qoplamasi sifatida shisha va plyonkaga nisbatan mexanik kuchlanishlarga bardosh bera olishi va issiqlik izolatsion xususiyatlarining yuqori ekanligini inobatga olgan holda uyali polikarbonatdan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

2. Quyosh quritgichining laboratoriya modelidan foydalanib, meva va sabzavotlarni quritish kinetikasining asosiy parametrlari aniqlandi. O’tkazilgan tajribalarni rejalashtirish usuli asosida gelioquritgichda o‘rikni turli rejimlarda quritish jarayonida uning quritish davomiyligining asosiy quritish omillariga bog‘liqligini aks ettiruvchi regressiya tenglamasi olindi.

3. Gelioquritgich qurilmasida mevalarni quritish kinetikasi modellashtirildi va ularni quritish tezligini quritish agentining issiqlik va massa-almashinish parametrlari bilan bog‘laydigan hamda mahsulot nisbiy namligining har qanday qiymatlarida quritgichlarda mahsulotlarning quritish tezligini bashorat qilish imkonini beradi tenglama olindi.

4. Gelioquritgich qurilmasi shaffof sirtidan issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish va mevalarning quritish intensivligini oshirish imkonini beradigan retsirkulyatsiyali quyosh quritgich qurilmasi ishlab chiqildi (FAP 01889).

5. Quyosh quritgich qurilmasida ishlatilgan issiqligini utilizatsiya qilishga mo‘ljallangan, takomillashtirilgan rekuperativ issiqlik almashtirgichli energiya tejamkor quyosh quritgich qurilmasi ishlab chiqildi (FAP 02102). Qurilmada ishlatilgan issiq havoni utilizatsiya qilish jarayonida quritgichning FIK faol shamollatiladigan gelioquritgich qurilmasiga nisbatan 8-10 % yuqori ekanligi aniqlandi.

6. Taklif etilgan takomillashgan RRIAQQ qurilmasi Buxoro viloyati iqlim sharoitida qo‘llanilganda, bir mavsum davomida qurilmaning har bir m^2 yuzasidan 225 kg quritilgan meva olishga hamda har 100 kg quritilgan mahsulotni quritish uchun sarf qilinayotgan mablag‘ miqdorini 2,25 mln so‘m tejalishiga erishilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 ПРИ КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НАЗАРОВА НАРГИЗА МУСТАКИМОВНА

РАЗРАБОТКА И ИССЛЕДОВАНИЕ РЕЦИРКУЛЯЦИОННОЙ ФРУКТОСУШИЛКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АЛЬТЕРНАТИВНЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ

05.05.06 – Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Мı Республики Узбекистан за № B2020.3.PhD/T1156.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) размещен на веб-странице Научного совета (www. qmii.uz.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Жураев Туроб Дониёрович**
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Пайзуллахонов Мухаммаде-Султанхон Сайдивалихонович**
доктор технических наук, с.н.с.

Файзиев Тулкин Амирович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация: **Физико-технический институт**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.T.111.03 при Каршинском инженерно-экономическом институте. (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел: (99875) 224-02-89, факс: (99875) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрировано № ___). (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел: (99875) 224-02-89, факс: (99875) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz.)

Автореферат диссертации разослан «_____»_____2023 года.

(протокол реестра за №_____ 2023 года).

Г.Н. Узаков
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н, профессор

Х.А.Давлонов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

Б. Уришев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Даже в самых прогрессивных странах мира развитие использования альтернативных источников энергии рассматривается как один из наиболее эффективных путей решения проблемы нехватки природных топливно-энергетических ресурсов. Процессы выращивания, хранения и сушки сельскохозяйственной продукции являются технологическими процессами, которые сопровождаются большими энергозатратами. «В мире количество энергии, расходуемой на обработку, хранение и сушку сельскохозяйственных продуктов питания, составляет 30% от общего количества энергии, используемой для этого сектора»[1]. По этой причине важно совершенствовать технологии сушки сельскохозяйственной продукции и разрабатывать энерго- и ресурсосберегающие технологии на основе альтернативных источников энергии.

В мире проводятся научные исследования, направленные на разработку энергосберегающих солнечных сушилок для сушки плодоовощной продукции на основе возобновляемых источников энергии, создание эффективных методов и технологий сушки. В этом направлении, в частности, приоритетными считаются исследования по разработке энергосберегающих солнечных сушилок, снижению энергоёмкости процессов сушки сельскохозяйственной продукции на основе эффективного использования солнечной энергии. По этой причине особое внимание уделяется повышению производительности солнечных сушильных устройств, а также разработке сушилок с компактной и ресурсосберегающей конструкцией.

В нашей республике в целях круглогодичного удовлетворения потребности населения в сухофруктах ведутся работы по разработке современных технологий сушки, достигнуты определённые результаты по созданию новых конструкций эффективных гелиосушилок и внедрению их в производство. В «Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зелёную» экономику на период 2019 — 2030 годов», утверждённой Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-4477 от 4 октября 2019 года, в направлении «...диверсификации потребления энергоресурсов и развития использования возобновляемых источников энергии...»[2] обозначены важные задачи, поэтому создание компактных энергосберегающих гелиосушильных установок на основе альтернативных источников энергии является актуальной научно-технической задачей.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в направленных на повышение энергоэффективности в отраслях экономики республики, экономию топливно-энергетических ресурсов, внедрение энергосберегающих

[1] https://www.fao.org/3/cb7433en/cb7433en.pdf

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4477 от 4 октября 2019 года «Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зелёную» экономику на период 2019 — 2030 годов», https://lex.uz/docs/-4539502

